| KORXONALARDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI VA ULARNI HISOBGA OLISH.....                                                                                                                                       | 1085 |
| Muradova Minavvar Izzatullayevna                                                                                                                                                                             |      |
| O'ZBEKISTONDA AKT SOHASINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI: SAMARADORLIKNI BAHOLASH VA RAQAMLASHTIRISHNING MUAMMOLARI .....                                                                       | 1089 |
| Salibaev Xabibullo Negmatullaxanovich                                                                                                                                                                        |      |



|                                                                                                                                           |      |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------|
| TIJORAT BANK KREDIT PORTFELINING SIFAT BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....                                                   | 1094 |
| G'aybullayev Odil Baxtiyarovich, Amanova Xurshida Inyatullaevna                                                                           |      |
| XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA O'ZINI-O'ZI BAND QILISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI PASAYTIRISH MASALALARI.....                                      | 1099 |
| Azimova Hulkar Egamberdiyevna                                                                                                             |      |
| СОКРАЩЕНИЕ БЕДНОСТИ КАК СОЦИАЛЬНАЯ СОСТАВЛЯЮЩАЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ РЕФОРМЫ УЗБЕКИСТАНА.....                                                    | 1103 |
| Амирджанова Ситора Суннат кизи                                                                                                            |      |
| IQTISODIY JARAYONLARNI BOSHQARISHDA OPTIMALLASHTIRISH MODELLARI VA ULARNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....                                 | 1108 |
| Ibragimov Nodir Nusriddinovich                                                                                                            |      |
| MARKETINGDAGI ISTE'MOLCHILAR MOTIVATSIYASIDA NAFLILIK NAZARIYALARIDAN FOYDALANISH.....                                                    | 1113 |
| Jalilov Jamshid G'anijonovich                                                                                                             |      |
| AHOLI ZICH HUDUDLARDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI ANDIJON VILOYAT MISOLIDA.....                            | 1119 |
| Karimov Abdusamat Ismonovich, Bo'stonova Nilufar Abdusmatovna                                                                             |      |
| CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA ISTE'MOLCHILAR XULQ-ATVORINING SAVDO HAJMIGA TA'SIRINING TAHLILI.....                                         | 1125 |
| Haydarova Mohichehra Xurram qizi                                                                                                          |      |
| BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.....                                               | 1131 |
| Haydarov Husanboy Ahmadjon o'g'li                                                                                                         |      |
| DAVLAT QARZINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: PANEL MA'LUMOTLAR TAHLILI.....                                                               | 1135 |
| Sanakulova B. R., Jamolov M.M.                                                                                                            |      |
| AUDITNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA HISOBOT SANASIDAN KEYINGI HODISALAR AUDITI.....                                                    | 1142 |
| Muydinov Erkin Djumaldinovich                                                                                                             |      |
| AUTSORSING FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI.....                                                                                 | 1148 |
| Xamidov Anis Choriyevich                                                                                                                  |      |
| BIOCHEMICAL CHANGES IN THE BODY DURING THE PERIOD OF FATIGUE AND REST AFTER WORK FOR ATHLETES.....                                        | 1153 |
| Yoldasheva Roila Jumaevna, Ruyobova Shakhlo Anvar qizi                                                                                    |      |
| KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHGA OID XORIJIY MAMLAKATLARNING ILG'OR NAZARIYALARI VA YONDASHUVLARI.....                                    | 1159 |
| Muradova Nazira Raximjanovna                                                                                                              |      |
| XORAZMDA IQTISODIY BARQARORLIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....                                                                      | 1165 |
| Xudayorova Munira Omonboy qizi                                                                                                            |      |
| QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA INNOVATSION BUXGALTERIYA HISOBINI JORIY ETISH.....                                                        | 1170 |
| Mirzayev Komiljon Abdullajonovich                                                                                                         |      |
| SOLIQ MA'MURCHILIGI MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SOLIQ SOLISH BAZASINI KENGAYTIRISH IMKONIYATLARI.....                            | 1175 |
| Jononmirzayeva Dilafruz Ilhom qizi                                                                                                        |      |
| ИЗБАВЛЕНИЕ ОТ ИНФЛЯЦИИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЦИФРОВЫХ МЕТОДОВ И МАТЕМАТИЧЕСКИХ МОДЕЛЕЙ В СФЕРЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ.....                  | 1180 |
| Абидов А.А., Ахраров Б.С., Паязов М.М., Ахмедов А.М.                                                                                      |      |
| O'ZBEKISTONDA YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH VA INNOVATSION BIZNES TASHABBUSLARINI QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARI.....           | 1185 |
| Karimova Mavjuda Boxodirovna                                                                                                              |      |
| INVESTITSIYA MUHITINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI YUQORI TEXNOLOGIYALI TARMOQLARNI RIVOJLANTIRISH VA IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH..... | 1189 |
| Raxmatova Nargizaxon A'zamxonovna                                                                                                         |      |



|                                                                                                                                              |      |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------|
| O'ZBEKISTONDA ELEKTRON PULGA O'TISH ISTIQBOLLARI, KORRUPSIYA VA YASHIRIN<br>IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHISHDA KUTILAYOTGAN SAMARADORLIK ..... | 1195 |
| <b>Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Abdiyev Mansur Musurmonovich</b>                                                                          |      |



# O'ZBEKISTONDA ELEKTRON PULGA O'TISH ISTIQBOLLARI, KORRUPSIYA VA YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHISHDA KUTILAYOTGAN SAMARADORLIK

**Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich**

prof., DSs., Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi  
Budjet-soliq ilmiy tadqiqotlari instituti direktorining birinchi o'rinbosari

**Abdiyev Mansur Musurmonovich**

Soliq, bojxona va tarif siyosatini takomillashtirish loyihasi yetakchi mutaxassisi,  
mustaqil izlanuvchi

**Annotatsiya.** Maqolada to'lov tizimlari ko'plab mamlakatlarda tobora elektronlashib borayotgani fonida naqd pulning ahamiyati kamayib borayotganini kuzatish mumkin. Ushbu o'zgarishlarni inobatga olgan holda zamonaviy iqtisodiyotda naqd pulning dolzarbligining kamayishi to'lovlar shaffofligini oshirishi, xarajatlarni qisqartirishi va natijada mamlakatimiz iqtisodiyotida kutilayotgan ijobiy natijalarga erishishga xizmat qilishi tahlil qilindi. Kelgusida respublikamizda elektron pulni joriy etish masalalari bo'yicha xorijiy tajriba o'rganilgan holda tegishli takliflar ishlab chiqildi.

**Kalit so'zlar:** pul, naqd pul, keshless to'lovlar, naqdsiz to'lovlar, elektron pul, elektron hamyon, banknota, mobil pul xizmatlari, iqtisodiyot, monetar siyosat, sand dollar, norasmiy iqtisodiyot.

**Abstract.** The article demonstrates that as payment systems in many countries become increasingly electronic, the importance of cash is diminishing. Taking these changes into account, an analysis was conducted on the positive outcomes expected in our country's economy through enhancing payment transparency and reducing costs by decreasing the relevance of cash in the modern economy. Furthermore, proposals for the future implementation of electronic money in our republic have been developed based on the study of foreign experiences.

**Key words:** money, cash, cashless payments, non-cash payments, electronic money, e-wallet, banknote, mobile money services, economy, monetary policy, sand dollar, informal economy.

**Аннотация.** В статье рассматривается снижение значимости наличных денег на фоне растущей электронизации платежных систем во многих странах. С учетом этих изменений проанализированы возможные положительные результаты для экономики нашей страны, такие как повышение прозрачности платежей и снижение издержек, за счет уменьшения роли наличных денег в современной экономике. На основе изучения зарубежного опыта разработаны предложения по внедрению электронных денег в нашей республике в будущем.

**Ключевые слова:** деньги, наличные деньги, безналичные платежи, безналичные платежи, электронные деньги, электронный кошелек, банкнота, мобильные денежные услуги, экономика, монетарная политика, песочный доллар, неформальная экономика.

## KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda iqtisodiyotning raqamli sektorini rivojlantirish borasida davlat tomonidan keng ko'lamli chora-tadbirlar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etilmoqda. Elektron to'lov tizimi rivojlantirilmoqda va ushbu sohadagi normativ-huquqiy baza yanada takomillashtirilmoqda. Ko'pchilik elektron pullar deganda birinchi o'rinda faqat kriptovalyutalarni tasavvur qiladi. Aslida esa ular so'm yoki boshqa davlat valyutasining ekvivalenti bo'lib, uning aylanishi faqat elektron tizimda amalga oshiriladi.



O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 1-noyabrdagi "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi O'RQ-578-son Qonunida elektron pullar emitentining elektron shaklda saqlanadigan hamda elektron pullar tizimida to'lov vositasi sifatida qabul qilinadigan shartsiz va chaqirib olinmaydigan pul majburiyatlari sifatida ta'rif berilgan.<sup>1</sup>

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-sentyabrdagi "Elektron tijorat to'g'risida"gi O'RQ-792-son Qonunida elektron tijorat sohasida to'lovlar elektron pullardan foydalangan holda, elektron pullar tizimida ochilgan elektron hamyondagi pul mablag'larini o'tkazish orqali amalga oshirilishi belgilangan.<sup>2</sup>

Tovar va xizmatlar ayirboshlash hajmining ortishi jahon bozorida raqobatni kuchaytirar ekan, iqtisodiy o'sish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Albatta, bu o'zgarishlar yana bir bor jahon savdosi bosqichma-bosqich to'liq elektron (naqdsiz) to'lovlarga o'tib borayotganini ko'rsatadi va bu jarayon global darajada elektronlashib borayotgan dunyo talablariga mos keladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodchi professor Margarita Bryunermeyer raqamli pullar va markaziy bank raqamli valyutasi (CBDC) pul aylanish jarayoni, to'lov vositasi tanlovi va bank tizimidagi murakkab o'zgarishlarga olib kelishi mumkinligini ta'kidlagan. Uning fikricha, elektron pullar markaziy banklar uchun siyosat va nazariyani qayta ko'rib chiqishni ham talab qiladi.<sup>3</sup>

Xitoy iqtisodiyot universiteti o'qituvchisi Shen Luo Elektron pullarning kengayishi markaziy banklar va moliyaviy siyosatning samaradorligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin deb ta'kidlagan.<sup>4</sup>

Iqtisodchi professor Aleksandr Rodrigues raqamli pullarning ishga tushishi inflyatsiya darajasini pasaytirishga yordam beradi. Raqamli pullar va to'lov tizimlari iqtisodiy barqarorlikka ta'sir qilish va makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni yaxshilashda muhim ahamiyatga ega degan fikrni bildirgan.<sup>5</sup>

Italiyalik iqtisodchi, Italiya Markaziy banki rahbari Fabio Panetta raqamli yevro — omma uchun xavfsiz, ishonchli va butun yevrotahsilda qabul qilinadigan jamoat pulining elektron shakli; qo'llanishda bank likvidligiga xavfni cheklash uchun shaxsiy hajm-limit va boshqa choralar zarurligi to'g'risida fikrlarni bildirgan.<sup>6</sup>

Elektron pullarga kelsak, ilmiy adabiyotlarda ushbu atamaning talqini bo'yicha turli xil yondashuvlar mavjud. U «raqamli valyuta», «pul qiymati», «elektron pul o'tkazmasi» va boshqa ma'nolarni anglatishi mumkin. Elektron pullar qonuniy to'lov vositasi sifatida tan olinadi va har bir mamlakat qonun chiqaruvchisi tomonidan aniq tartibga solinadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda elektron (naqdsiz) pulga o'tish va naqd pullik to'lovlardan bosqichma-bosqich voz kechilishi natijasida nafaqat iqtisodiy sohada, balki korrupsion sohalaridagi holatlarni kamaytirish borasida kutilayotgan ijobiy samaralar, shuningdek xorijiy mamlakatlar tajribasi analiz, sintez va qiyoslash usullari qo'llanilgan holda o'rganildi. Bundan tashqari, xorijiy va mahalliy ilmiy-nazariy manbalar tahlil qilinib, tegishli xulosa va takliflar shakllantirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi vaqtda pul uch shaklda muomalada bo'ladi: naqd, naqdsiz va elektron pullar. Elektron pullar (e-money) — bank kompyuter tizimlarida saqlanadigan va fiat pullar bilan ta'minlangan valyutadir. U hukumat tomonidan kafolatlanadi va qonuniy to'lov vositasi hisoblanadi. Misol uchun, elektron pullarni istalgan bankomatda karta yoki boshqa to'lov vositasidan yechib olish mumkin. Elektron pullar naqd pulsiz to'lovlardan farq qiladi.

Elektron pullarni smart kartalar yordamida saqlash va o'tkazish mumkin. Smart-kartalarda pullar "pul fayllari" ko'rinishidagi yozuvlar sifatida saqlanadi hamda bunday kartalarda pulni shifrlash imkoniyati mavjud. Elektron pullarni joylashtirishning ikkinchi turi — tarmoqli usul bo'lib, u ko'pchilik tijorat xizmatlari (masalan, WebMoney elektron hamyoni, Yandex Pullar, QIWI, EasyPay va boshqalar) foydalanayotgan dastur yoki tarmoq resurslarida amalga oshiriladi.

Markaziy bankning iqtisodiyotdagi o'rnini va ta'sirini baholashda uning amalga oshirayotgan pul-kredit siyosati hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu siyosat orqali Markaziy bank mamlakatdagi pul aylanmasini tartibga soladi, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi va inflyatsiya darajasini nazorat qiladi (1-rasm).

1 <https://lex.uz/docs/4575786>

2 <https://lex.uz/docs/6213382>

3 <https://www.ecb.europa.eu/pub/pdf/scpwps/ecb.wp2713~91ddff9e7c.en.pdf?utm>


4 <https://www.mdpi.com/2227-7390/9/20/2614?utm>

5 <https://www.journaleconomics.org/index.php/AJEFM>

6 [https://www.ecb.europa.eu/press/key/date/2020/html/ecb.sp201012\\_1~1d14637163.en.html?utm](https://www.ecb.europa.eu/press/key/date/2020/html/ecb.sp201012_1~1d14637163.en.html?utm)




### Банк карталаридан нақд пул кўринишида ечиб олинган пул маблағи тўғрисида маълумот



1-rasm. 2023-2024-yillarda bank kartalariga tushgan mablag'larning naqdlashtirib olinishi hajmi<sup>7</sup>

Yuqoridagi diagrammada bank kartalaridagi pul mablag'lari harakati ko'rsatilgan bo'lsa, 2023-yilda banklar tomonidan ochilgan kartalarga jami 789,5 trln so'm pul mablag'lari tushgan, ushbu pul mablag'larining 189,2 trln so'mi yoki 24,0 %i naqd pul ko'rinishida yechilgan. 2024-yilda esa bank kartalariga tushgan pul mablag'lari hajmi o'tgan yilga nisbatan 244,7 trln so'mga oshib, jami 1 034,2 trln so'mni tashkil qilgan. Ushbu pul mablag'larini naqdlashtirish hajmi 225,9 trln so'mni tashkil etib, 21,8 %ga teng bo'lgan. Plastik kartalardagi pul mablag'larini naqdlashtirish 2023-yilga nisbatan 2024-yilda 36,7 trln so'mga yoki 19,4 %ga oshganini ko'rishimiz mumkin (2-rasm).

### 2023-2024 йилларда банк кассалари орқали келиб тушган нақд пуллар



2-rasm. Bank kassalariga kirim qilingan naqd puldagi tushumlar to'g'risida

Bundan tashqari, yuqoridagi rasmda Markaziy bank tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatmoqdaki, 2024-yilga kelib banklar orqali naqd pul aylanmasi 1 010 trln so'mni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2023-yilga nisbatan 1,2 baravarga oshgan. 2024-yilda muomaladagi naqd pullarning YAIMdagi ulushi 3,7 %ni tashkil qilayotgan bo'lsa, jami pul massasidagi ulushi 19,2 %ga teng bo'lmoqda. Muomaladagi naqd pullarning 0,3 %i yoki 831,2 mlrd so'mi tanga pullar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

<sup>7</sup> Markaziy bank ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi



Respublikamizda 2024-yil davomida 152,1 mln dona banknotalar muomalaga chiqarilib, naqd pulning umumiy massasi 7,5 %ga oshgan. Bu esa 2025-yil boshiga kelib muomaladagi banknotalar soni taxminan 2 028,0 mln donani tashkil qilayotganini ko'rsatadi. Ushbu holat naqd pul aylanishi yildan yilga ortib borayotganini va aholining qog'oz hamda tanga pullarga bo'lgan talabi yuqoriligi saqlanib qolayotganini tasdiqlaydi.<sup>8</sup>

Iqtisodiyotda naqd pulga bo'lgan talab oshgani sari, Markaziy bank aholi va biznes subyektlarining pul aylanmasiga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida qo'shimcha banknotalarni muomalaga chiqarishga majbur bo'ladi. Bu jarayon bir qarashda iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlashga xizmat qilgandek ko'rinsa-da, uning bir qator moliyaviy va makroiqtisodiy oqibatlari mavjud. Birinchidan, yangi pul belgilarini bosib chiqarish, saqlash va tarqatish davlat budjeti uchun qo'shimcha xarajatlarni keltirib chiqaradi. Chunki banknotalar ishlab chiqarish jarayonida maxsus qog'oz, himoya elementlari, bosma texnologiyalari va logistika xarajatlari talab etiladi. Bu xarajatlar davlatning fiskal yukini oshiradi.

Ikkinchidan, pul massasining ortishi inflyatsiya xavfini kuchaytiradi. Agar iqtisodiyotda tovar va xizmatlar hajmi mutanosib ravishda o'smagan taqdirda, ortiqcha pul qo'yilmasi narxlarning oshishiga, ya'ni inflyatsiyaga olib keladi. Uchinchidan, naqd pul aylanmasi ulushining yuqori bo'lishi iqtisodiyotda norasmiy sektor faoliyatining kengayishiga sabab bo'ladi. Bu esa soliq tushumlarining kamayishiga va davlat budjeti barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Yuqoridagi tahlillarga ko'ra, O'zbekistonda naqd pulga bo'lgan talab hozirgi vaqtda juda yuqori darajada saqlanmoqda. Bu, o'z navbatida, iqtisodiyotdagi pul aylanishi va likvidlikning yuqoriligini, aholi tomonidan banknotalarga bo'lgan ehtiyojning kuchli ekanini ko'rsatadi. O'zbekistonda bir birlik banknota (so'm)ni ishlab chiqarishdan tortib, iste'molchigacha yetib borishgacha bo'lgan xarajatlar Markaziy bank tomonidan ochiq holda e'lon qilinmagan.

Banknotani ishlab chiqarish va uni muomalaga kiritish jarayonida amalga oshiriladigan xarajatlar bir necha bosqichdan o'tadi. Jumladan:

1. Tadqiqot va loyihalashtirish (dizayn);
2. Xom-ashyolarni tayyorlash;
3. Banknotani bosib chiqarish;
4. Tarqatuvchi tizimga qo'shish (logistika);
5. Saqlash, tarqatish va utilizatsiya xarajatlari.

Naqd pullarning aholi qo'lida uzoq vaqt qolib ketishi iqtisodiy aylanmaga salbiy ta'sir ko'rsatish bilan birga inflyatsiyaning oshishiga, qo'lda saqlash xavfi ortishiga hamda xufyona iqtisodiyot va korrupsion holatlarning kuchayish ehtimolini oshiradi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining 2025-yil 14-fevraldagi 11-son qarori bilan respublikamizda elektron pullarni nazorat qilishga oid qonunchilikka, ya'ni Adliya vazirligidan 2020-yil 30-iyunda ro'yxatdan o'tkazilgan 3266-son qarorga tegishli o'zgartirish kiritilib, bazaviy hisoblash miqdorining 30 baravariga teng yoki undan oshgan summadagi yuborilayotgan ichki elektron pul o'tkazmalari bo'yicha jo'natuvchi va oluvchi to'g'risidagi ma'lumotlarni aniq ko'rsatish talab etilishi belgilandi.

Elektron pullar naqd pullarga nisbatan quyidagi afzalliklarga ega:

- Mukammal bo'linuvchanlik va birlashuvchanlik — to'lov vaqtida qaytim talab etilmaydi.
- Yuqori mobil xususiyat — summa naqd puldagi kabi hajm va vaznga bog'liq emas.
- Past emissiya xarajati — tangalar zarb qilish va banknotalar chop etish uchun metall, qog'oz va bo'yoqlar talab etilmaydi.
- Jismoniy qayta sanash zarurati yo'q — bu vazifa to'lov vositasiga yuklatiladi.
- Soddalashtirilgan himoya — elektron pullarni himoya qilishni tashkil etish osonroq.
- To'lov vaqtini qayd etish — bu inson omili ta'sirini kamaytiradi.
- Fiskal ekvayring qurilmalaridan foydalanganda mablag'larni soliqdan yashirish imkoniyati minimallashtiriladi.
- Mukammal saqlanish — elektron pullar vaqt o'tishi bilan sifatini yo'qotmaydi.
- Sifat bir xilligi — elektron pul nusxalarida tiralish yoki eskirish bo'lmaydi.
- Xavfsizlik — o'g'irlash, qalbakilashtirish va nominal qiymatni o'zgartirishdan himoya kriptografik vositalar orqali ta'minlanadi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, elektron pullar, elektron to'lov tizimlari va internet axborot bazasiga asoslangan moliyaviy xizmatlar turlarining kengayib borishi to'lov tizimlarining tez rivojlanayotganini, shuningdek global iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlar elektron pullarga o'tishning ayni vaqti kelganini tasdiqlaydi. Shunday ekan, elektron pullarga o'tish hozirda nafaqat jamiyat, balki davlat iqtisodiyoti uchun ham muhim qadam hisoblanadi.

8 [https://cbu.uz/upload/medialibrary/57b/0k19fv1aey7lot5eyib3eae4rx8lc1jh/Markaziy-bank-yillik-hisoboti-2024\\_.pdf](https://cbu.uz/upload/medialibrary/57b/0k19fv1aey7lot5eyib3eae4rx8lc1jh/Markaziy-bank-yillik-hisoboti-2024_.pdf)



Yaponiyada “elektron pul” infratuzilmasi 1990-yillar oxirida pilot loyihalar orqali shakllanishni boshladi. Davlat islohotlariga ta’siri jihatidan 2019–2020-yillarda amalga oshirilgan “keshless ball-qaytarish” dasturi iste’molchilarning naqd puldan raqamli to’lovlarga o’tishini rag’batlantirdi. Kichik savdo shoxobchalari uchun to’lov terminallarini o’rnatish xarajatlari subsidiya qilindi. Bundan tashqari, Yaponiyaning elektron pullarga o’tishdan ko’zlagan asosiy maqsadlaridan biri xarajatlarni qisqartirishdir. Ya’ni naqd pullarni ishlab chiqarishdan tortib, ularni utilizatsiya qilishgacha bo’lgan bir yillik xarajatlar miqdori 500–600 mln AQSH dollari deb baholangan.

AQSHda elektron pulga o’tish jarayonida bir qator muammolar kuzatilgan. Birinchidan, aholi orasida “banksizlar” mavjud bo’lib, ular internet aloqasining yetishmasligi sababli elektron to’lovlardan foydalana olmaydi. Ikkinchidan, pandemiya davrida va undan keyin ayrim xizmat ko’rsatuvchi do’konlar va restoranlar soliq intizomi va xavfsizlik sabablariga ko’ra naqd pulni qabul qilmaslik amaliyotiga o’ta boshladi. Uchinchidan, elektron to’lov tizimlari kiberxavflarga hamda texnik uzilishlarga moyil bo’lib, kuchli elektromagnit zarba yoki kiberhujum sodir bo’lgan holatlarda elektron tarmoqlarning ishlamay qolish ehtimoli mavjud.

AQSHda 2024-yilda Federal rezerv tizimining pul xizmatlariga sarflagan umumiy xarajatlari 1,104 mlrd dollarni tashkil etdi. Ushbu mablag’ning 361,9 mln dollari banknotalarni bosib chiqarishning o’zgaruvchan xarajatlariga, 665,5 mln dollari esa infratuzilmani qo’llab-quvvatlash va boshqa doimiy xarajatlarga yo’naltirilgan.<sup>9</sup>

Shuningdek, AQSHda ko’plab banklarda kartalardan naqd pul olish uchun kunlik limit joriy qilingan. Masalan, Bankrate saytida keltirilishicha, bir kunda 300 dollardan 5 000 dollargacha naqd pul olish imkoniyati belgilangan.<sup>10</sup>

Naqd puldan elektron to’lovlarga o’tish bir qator ijobiy samaralarni keltirib chiqarmoqda. Jumladan, to’lov tizimlarining tezligi va samaradorligi oshib, iste’molchilar uchun to’lovlarning qulayligi kuchaymoqda, nazorat qilish jarayonlari yengillashmoqda, qarz va budjetlashtirish tartibining sifat darajasi yaxshilanmoqda. Xavfsizlik va infratuzilmani himoya qilish agentligi (CISA) hujjatlarida moliya sektori energiya, aloqa va IT infratuzilmasiga kuchli bog’liq bo’lgan kritik tarmoq sifatida e’tirof etiladi. Unda rezerv elektr ta’minoti (generatorlar, UPS, mikrogrid) hamda ko’p kanalli aloqa tizimidan (telekom operatorlari diversifikatsiyasi, sputnik aloqasi va boshqalar) foydalanish zarurligi belgilangan. Agar ushbu tarmoqlarning barchasi butun mamlakat bo’yicha to’liq ishdan chiqish ehtimoli yuzaga kelgan taqdirda, naqd pul rezervining mavjud bo’lishi muhim omil sifatida nazarda tutiladi.<sup>11</sup>

Norvegiyada naqd puldan elektron pulga o’tish salmoqli natijalar berdi. Masalan, 2023-yilda har bir norvegiyalik o’rtacha 550 marta bank kartalari orqali to’lov qilgani qayd etilgan. Raqamli to’lovlar natijasida naqd puldan foydalanish ancha kamaygan. 2023-yilda o’tkazilgan so’rov natijalariga ko’ra, aholining faqat 2 %i oxirgi to’lovini naqd pulda amalga oshirgani ma’lum qilingan.

Bagama orollarida Markaziy bank tomonidan 2020-yilda Sand Dollar raqamli valyutasi (CBDC) joriy etilgan. U oddiy Bagama dollariga teng bo’lib, telefondagi elektron hamyonlar orqali to’lov qilish, pul yuborish va qabul qilish uchun qo’llaniladi. Raqamli valyutaning asosiy maqsadi hududda moliyaviy xizmatlarni osonlashtirish, naqd pulga bog’liqlikni kamaytirish hamda to’lovlarni tez va arzon amalga oshirishdan iborat bo’lgan. Tezkor to’lov, xavfsizlik, naqd pulga ehtiyoj sezmasdan hisob-kitoblarni bajarish kabi afzalliklarga ega.

Bagama Markaziy banki tomonidan taqdim etilgan ma’lumotlarga ko’ra, bir birlik banknotani ishlab chiqarish uchun 23 sent, taqsimlash va tarqatish uchun 15 sent, utilizatsiya qilish jarayoni uchun 41 sent, jami 79 sent xarajat qilinadi. Elektron pul – Sand Dollar joriy etilishi mamlakatda to’lovlarni zamonaviylashtirishga sezilarli hissa qo’shdi. Ushbu raqamli valyuta orqali aholi va biznes vakillari to’lovlarni tez, xavfsiz va bankka bormasdan amalga oshirish imkoniyatiga ega bo’ldi. Chekka hududlarda yashovchi fuqarolar ham mobil telefon orqali to’lov qila olishi natijasida moliyaviy xizmatlarga teng imkoniyat yaratildi.<sup>12</sup>

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Elektron pullarni joriy etish orqali iqtisodiy operatsiyalar ustidan nazoratni kuchaytirish, yashirin iqtisodiyot hajmini qisqartirish, korrupsiya darajasini kamaytirish hamda soliq tushumlarini oshirishga erishiladi. Shuningdek, elektron pul tizimi naqd pul aylanmasini qisqartirib, uning ishlab chiqarish, tashish va saqlash bilan bog’liq xarajatlarini keskin kamaytiradi. Bundan tashqari, elektron pullar moliyaviy inklyuziyani, ya’ni aholining bank va to’lov xizmatlaridan foydalanish darajasini oshirishda muhim o’rin tutadi. Bu esa kichik biznes, tadbirkorlar va aholi uchun yangi moliyaviy imkoniyatlar yaratishga xizmat qiladi. Shu sababli, elektron pulga bosqichma-bosqich o’tish mamlakat iqtisodiyotida raqamli texnologiyalarni joriy etishni tezlashtiradi, to’lov tizimlari xavfsizligini ta’minlaydi va milliy iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlaydi.

9 [https://www.federalreserve.gov/faqs/currency\\_12771.htm](https://www.federalreserve.gov/faqs/currency_12771.htm)

10 <https://www.bankrate.com/banking/checking/atm-withdrawal-limits/>

11 U.S. Department of the Treasury

12 <https://cointelegraph.com/learn/articles/sand-dollar-bahamas-digital-currency-a-beginners-guide?utm>



Tadqiqot natijasiga ko'ra quyidagilar taklif etiladi:

1. O'rganilgan xalqaro tajribadan kelib chiqib, naqd pul mablag'larini ishlab chiqarish, saqlash, muomalaga kiritish va boshqa xarajatlarni kamaytirish maqsadida O'zbekistonda ham elektron pullarni joriy etish maqsadga muvofiq.

2. Aholining elektron pullarga o'tish davridagi moliyaviy savodxonligini oshirish yuzasidan ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar hamda mahalla yetiligi orqali jamoatchilik bilan keng miqyosda muloqot va tushuntirish ishlarini olib borish.

3. Sohalar kesimida bosqichma-bosqich to'liq elektron to'lovga o'tish. Masalan: qurilish, chakana savdo (alkogol va tamaki savdosi), mehmonxona va turizm sohalarini to'liq naqdsiz to'lovlarga o'tkazish.

4. Tajriba loyihasi sifatida respublikaning bir hududini tanlagan holda to'liq elektron to'lov tizimini joriy etish. Toshkent shahrida internet tarmog'i eng yaxshi rivojlangan hudud ekanligini inobatga olib, shahar tumanlaridan birida savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchalarida to'liq elektron pullar muomalasini joriy qilish, tajriba natijalaridan kelib chiqib boshqa hududlarga tatbiq etish.

5. QR-kodlar va mobil ilovalar orqali to'lovlarni kengaytirish. Bu texnologiya fuqarolarga savdo nuqtalari va xizmat ko'rsatish sohalarida oson va tez to'lov qilish imkonini beradi. QR-kodlar tizimini ommaviy joriy etish to'lovlarning aniqligi va qulayligini oshiradi.

6. Elektron to'lov infratuzilmasini modernizatsiya qilish. Barcha to'lovlarni mobil platformalar va internet-banking orqali amalga oshirish uchun mukammal infratuzilma talab etiladi. O'zbekistondagi banklar va moliyaviy xizmatlar integratsiyalangan platformaga ega bo'lishi, kredit kartalari, debet kartalari, mobil hamyonlar va QR-kodlarni yagona tizimda birlashtirishi zarur.

7. Keshbek va bonus tizimini joriy etish. Aholining elektron to'lovlardan foydalanishini rag'batlantirish uchun keshbek va bonus mexanizmlarini kengaytirish, mikrobizneslar va chakana savdo subyektlari uchun qo'shimcha rag'batlantirish choralari joriy etish lozim.

8. Elektron pullarning xavfsizligini ta'minlash. Kiberxavfsizlik, kriptografiya va shifrlash vositalarini qo'llash orqali anonimlik va maxfiylikni saqlash, jamiyatning elektron to'lovlarga bo'lgan ishonchini oshiradi.

9. Bank kartalarida saqlangan pullar uchun qayta moliyalashtirish stavkasidan kelib chiqib maxsus foiz to'lovlari mexanizmini joriy etish, kartadagi pullar bankomatlar orqali naqdashtirilganda ushbu foizlarning qaytarib olinishi tartibini belgilash.

10. Elektron pullar joriy etilishi natijasida yashirin iqtisodiyot darajasini kamaytirish hamda soliqqa oid huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha Soliq qo'mitasi tomonidan raqamli elektron platforma ishlab chiqilib, alohida nazorat o'rnatilishi lozim.

11. Blekaut (elektr ta'minoti, aloqa, internet tarmog'i uzilishi va boshqa favqulodda holatlar) vaqtida yuzaga keladigan xavflarni oldini olish maqsadida Markaziy bank tomonidan quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

- elektron pullar joriy etilganda ushbu mablag'ning 50 %igacha bo'lgan qismini Markaziy bankda naqd pul ko'rinishidagi qoldiq (rezerv) sifatida shakllantirish;

- elektron pullardan doimiy foydalanishni ta'minlash maqsadida zahira serverlarini xarid qilish, aloqa xizmatlari sifatini mustahkamlash va ularning uzluksiz ishlashini ta'minlash;

- favqulodda vaziyatlarda aholi tomonidan doimiy iste'mol tovarlarini xarid qilish imkoniyatini yaratish uchun tijorat banklari mavjud elektron pullarning 50 %igacha bo'lgan qismini shakllantirilgan rezerv mablag'lar hisobidan naqd pullarga almashtirish choralari qonunchilik orqali belgilash.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 1-noyabrdagi "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi O'RQ-578-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/-4575786>
2. O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-sentyabrdagi "Elektron tijorat to'g'risida"gi O'RQ-792-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/-6213382>
3. Ўзбекистон Республикаси Марказий банки Бошқаруви, Ўзбекистон Республикаси Бош прокуратураси ҳузуридаги Иқтисодий жиноятларга қарши курашиш департаментининг 30.06.2020 йилда рўйхатдан ўтган, рўйхат рақами 3266 - сонли қарори
4. [https://cbu.uz/upload/medialibrary/57b/0k19fv1aey7lot5eyib3eae4rx8lc1jh/Markaziy-bank-yillik-hisoboti-2024\\_.pdf](https://cbu.uz/upload/medialibrary/57b/0k19fv1aey7lot5eyib3eae4rx8lc1jh/Markaziy-bank-yillik-hisoboti-2024_.pdf)
5. [www.ecb.europa.eu/pub/pdf/scpwps/ecb.wp2713~91dfff9e7c.en.pdf?utm](https://www.ecb.europa.eu/pub/pdf/scpwps/ecb.wp2713~91dfff9e7c.en.pdf?utm)
6. [www.mdpi.com/2227-7390/9/20/2614?utm](https://www.mdpi.com/2227-7390/9/20/2614?utm)
7. [www.journaleconomics.org/index.php/AJEFM](https://www.journaleconomics.org/index.php/AJEFM)
8. [www.ecb.europa.eu/press/key/date/2020/html/ecb.sp201012\\_1~1d14637163.en.html?utm](https://www.ecb.europa.eu/press/key/date/2020/html/ecb.sp201012_1~1d14637163.en.html?utm)
9. [www.federalreserve.gov/faqs/currency\\_12771.htm](https://www.federalreserve.gov/faqs/currency_12771.htm)
10. [www.bankrate.com/banking/checking/atm-withdrawal-limits/](https://www.bankrate.com/banking/checking/atm-withdrawal-limits/)
11. <https://www.marketingjournal.uz/post/marketing-jurnali-2025-yil-10-son>
12. <https://zenodo.org/records/17411926>



13. <http://tcmf.uz/pages/view?slug=moliyachi-malumotnomasi-4-aprel-2024-yil>
14. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/1261>
15. Pulatov D. Вопросы совершенствования государственного финансового контроля в Узбекистане //Perspectives of Innovations, Economics and Business, PIEB. – 2009. – Т. 2. – №. 2. – С. 49-50
16. Dilshod P. K. The law on public procurement–the scope and the procedure of its application in the health care system //International Journal of Innovative Technologies in Economy. – 2019. – №. 2 (22). – С. 3-8.
17. Pulatov D.Kh., Ashrafkhanov B.B. L'Ouzbékistan EST sur le chemin des réformes de la gestion de SES finances publiques //Gestion Finances Publiques. - France, 2009. - №10. - P. 748-752.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 11**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>